

ERTAKLARDA HAYVONLAR TIMSOLINING HARAKTERLANISHI

*Saidaliyeva Diyora
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
“Boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi
4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqolada eraklar va ularning bola tarbiyasidagi o’rni hamda hayvonlar qatnashgan ertaklarning tasniflanishi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Ertak, hayvonlar qatnashgan ertaklar, rus xalq ertaklari, allegoriya, eng mashhur ertak qahramonlari, och bo’ri, “Mushuk bilan Chumoli, “Sher va durroj”, “Toshbaqa bilan Chayon”.

Beshikdan bola ertaklarni tinglab ulg’ayadi, o’zini qahramonlar bilan bog’laydi, o’zini ularning o’rniga qo'yadi. Qoidasiga ko’ra go’yo ertaklar bolalar uchun yaratilgan, lekin undan chiqadigan xulosa kattalar uchundir. Ertaklarning oxiri odatda baxtli yakun topadi. Ertak bolaga hayot qoidalari va maqsadlarini o’rganish, oilaviy qadriyatlarini himoya qilish zarurati va boshqalarga hurmatli munosabatda bo’lish jarayonida yordam beradi.

Shu bilan birga, ertak avloddan -avlodga o’tib boradigan juda ko’p ma'lumotni o’z ichiga oladi, bu odamning xarakterini shakllantirishga yordam beradi va uning ajdodlarini hurmat qilishga asoslangan.¹

Tarixdagi birinchi ertaklar kitob va yozuv ixtiro qilinishidan ancha oldin paydo bo’lgan va og’izdan og’izga, avloddan avlodga o’tib kelgan. Shuning uchun ularni xalq og’zaki ijodi deb atashadi.

Ertaklarning janrlari ko’p. Hayotiy ertaklar, afsonaviy ertaklar, sehr-joduli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaqklar. Ulardan biz bugun hayvonlar qatnashgan ertaklar haqida biroz tahlillashamiz.

Xo’sh nega xalq hayvonlar obrazini aynan ertaklarda judayam ko’p ishlatgan? Chunki ertaklarni bolalar uchun, ularning ma’naviyatini boyitishga hizmat qiligani uchun hayvon timsoli bolaga tushinish uchun ancha osonlik bergen.

Masalan, “Och bo’ri” haqidagi ertakni oladigan bo’lsak, “Bor ekanda yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan, bir *och bo’ri* bo’lgan ekan. Kunlardan bir kuni u don yeb yurgan bir *xo’rozni* ko’rib qolibdi. Bo’ri xo’rozni ushslash payiga tushibdi.”

¹ <https://tafakkur.net/sher-va-durroj/alisher-navoiy.uz>

Bo'ri- bola tafakkuridagi yirtqich hayvon. Ozuqasi esa asosan go'sht. Kimningdir haqqini yeydigan inson tasavvurini shu orqali berish juda qulay hamda bola uchun tushinarli holat.

Yoki "Mushuk bilan chumoli" ertagini olsak, "Juda ham semirib, yiltillab ketgan *Mushuk* yo'l yoqasida mudrab o'tirgan ekan. Ashula aytib, ishga ketayotgan *Chumoli* *Mushukni* ko'rishi bilan jimb qolibdi-da, qadamini sekinlatibdi. Qo'rqanidan emas, *Mushukni* uyg'otmaslik uchun shunday qilibdi".

Bunda mushukni – tanbal, ishyoqmas insonga qiyoslangan bo'lsa, *Chumoli* esa mehnatkash, tinimbilmas kishilarga qiyos qilingan.

Albatta ertakchilar o'z ertaklarini yaratayotganlarida va qahramon sifatida hayvonlarni misol qilganlarida, ularning hatti-harakati va tashqi ko'rinishi hamda nimani ozuqa qilishiga qarab tanlaganlar.

Tassavur qilaylik kichik yoshdagi bolalarga ertaklarda faqat odamlar va ularni ismlarini qatnashtirib ertak so'zladik, bunda bolaga birmuncha qiyinroq bo'ladi. Ularga ismlarni eslashdan ko'ra, turli hayvonlar obrazi yaxshiroq qabul qilinadi va tushinarliroq bo'ladi. Nafaqat bolalarda balki kattalar ham bunday ertaklarni tezroq tushunib oladi. Har bir ertakda hayvonlarning harakterlari keltiriladi. Ayniqsa o'zbek xalq ertaklarida *Ayiq*, *bo'ri*, *tulki*, *quyon* - rus ertaklarining qahramonlari. O'rmonda hayvonlar yashaydi. ularning har birining o'ziga xos qiyofasi bor, adabiy tanqidda uni **allegoriya** deb atashadi.

Allegoriya (majoz)-ramzning bir ko'rinishi bo'lib, voqe-a-hodisa yoki narsa-buyumning mavhum tushunchasi o'rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so'z (obraz)ni qo'llash, ya'ni adabiy asarda o'quvchiga noaniq bo'lgan tushunchani ko'pchilikka ma'lum bo'lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli.

Quyida ertak qahramonlarining tasniflanishini keltirib o'tamiz:

Ertak qahramonlari	Tasniflanishi
Ayiq	Katta, kuchli
Tulki	Ayyor, yovuzlik
Bo'ri	Ahmoq, g'azablangan, ochko'z
Quyon	Qo'rroq, qochoq, tez
Chumoli	Mehnatkash
Eshak	Mehnatkash
Ilon	Zaharli, ba'zan dono
It	Vafodor, aqilli, himoyachi
Mushuk	Ayyor
Sigir	Mehnatkash, foydali
Ot	Ishbilarmo

Xo'roz	Laqma, ishyoqmas
chayon	Nokas, yolg'onchi
Sichqon	Ayyor, mehnatkash
Qurbaqa	Sehrli, ichki ko'rinishi chiroyli
Toshbaqa	Dono, passiv
Asalari	Mehnatsevar
Maymun	O'yinqaroq
To'ti	Gapdon
Bulbul	Yaxshi qo'shiq aytuvchi

Ertaklarda hayvonlar obrazi bolalarni yodida ertak tezroq qolishiga ham yordam beradi. Chunki ular u hayvonlarni ko'zlari bilan ko'rgan, ushlab ko'rgan, parvarish qilgan yoki yoshliklaridan multfilmda ko'rgan bo'lishadi.

Universitetda boshlang'ich ta'lim yo'naliishida o'qiydigan talabalar bilan tajriba o'tkazildi. Unda talabalarga ertak va ertak qahramonlarini yozish vazifa qilib berildi.

Bunda natija quyidagich bo'ldi:

Ertak nomlari	Talabalar soni
Susanbil	3
Qizil qalpoqcha	4
Echki bolalari	2
Bulbul	1
Sholg'om	4
Tulki va laylak	4
Yovvoyi yo'rg'a	4
Qarg'a va zag'cha	3
Yaxshilikka yomonlik	2
Sher va durroj	4
Bo'g'irsoq	10
Oppog'oy	5
Tilla baliq	5
Egrivoy va to'g'rivoy	4
Chumoli bilan kabutar	3
Tulkiboy	4
Toshbaqa bilan quyon	5

Ko'rinib turibdiki, talabalar qayd etgan ertaklarda hayon obrazi ishtirok etgan, ular tomonidan yaxshi ta'riflab, ochib berilgan va shuning uchun ham u esda qolarli bo'lган.

Xulosa qilib aytganda, hayvonlar qatnashgan ertaklar yodimizda tezroq qoladi, nafaqat bolalarga, kattalarga ham ular ibrat beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zme Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O'zbek xalq ertaklari "Uchar gilam". Toshkent-2018 6.b
3. Eertak.uz A.Abdurazzoq
4. Tafakkur.2023 A.Navoiy Manba <https://tafakkur.net/sher-va-durroj/alisher-navoiy.uz>
5. 6-sinf Adabiyot 2 "Toshbaqa bilan chayon" TOSHKENT"MA'NAVIYAT" 2017 56-B.